Qabul qilindi: 14-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 28-oktabr 2026-yil

TURKISTONLIK MUHOJIRLARNING XORIJIY MAMLAKATLARDAGI MILLIY TASHKILOTLARI VA ULARNING FAOLIYAT YO‘NALISHLARI TARIXI

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi
Buxoro innovatsion ta‘lim va tibbiyot universtiteti assistenti
BuxDU maqsadli tayanch doktoranti
elmurodovanilufar88@gmail.com +998 91 445-97-00



Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr davomida Turkiston hududidan turli tarixiy-siyosiy sabablarga ko‘ra xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketgan muhojirlarning milliy tashkilotlari, ularning shakllanish tarixi va asosiy faoliyat yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, turkistonlik muhojirlarning Turkiya, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan uyushmalar tashkil etishi hamda siyosiy, ma’rifiy va madaniy faoliyat olib borishi yoritiladi. Shuningdek, muhojirlik tashkilotlarining davriy nashrlar, ilmiy-publitsistik asarlar va jamoaviy tashabbuslar orqali Turkiston tarixini o‘rganish, milliy o‘zlikni saqlash, ona tili va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi sa’y-harakatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, “Turkiston Milliy Birligi”, ziyolilar, “Ko‘mak”, “Oydin” uyushmasi, “Turkistonliklar Madaniyat va Yordam Jamiyati”, “Yosh Turkistonliklar Jamiyati”, muxojirlar, “Erk” firqasi, “Yangi Turkiston” jurnali, Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Ko‘mak, Oydin, milliy madaniyat Turkiston.

“Turkiston Milliy Birligi” tashkiloti Sovetlar tomonidan Turkistonda olib borilgan bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashgan muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1920-yilda Buxoroda tashkil etilgan bo‘lib, “Buxoro Istiqloli” va Toshkentdagi “Milliy Ittihod” tashkilotlarini birlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat

yuritgan. Tashkilotning asosiy tashkilotchilari Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo‘jayev, Hoshim Shayx Qushbegiyev, Abduqodir Muhitdinov, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev va boshqalar edi. 1921-yil avgust oyida tashkilot “Turkiston Milliy Birligi” nomini olgan [1]. Ahmad Zaki Validiy Sovet hukumatining turk-musulmon xalqlariga nisbatan olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini tezda anglab yetgan. 1917-yilda Oktabr to‘ntarishidan so‘ng, Zaki Validiy Boshqirdistonda milliy muxtoriyat hukumati va milliy qo‘shin tuzgan. U Sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan natijada 1918-yilda qamoqqa olingan. Ammo, Zaki Validiy qamoqdan qochib, Boshqirdiston mustaqilligini himoya qilgan. 1919-yilda u RSFSR hukumatiga yordam berish va ittifoqdosh bo‘lishni so‘rab murojaat qilgan, ammo milliy masalada markaz bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Zaki Validiy 1920-yilda Lenin, Stalin, Trotskiy va Rikovga maxsus xatlar yozib, Turkiston milliy birligi uchun kurashishga qaror qilgan. U Sovet hukumatining ikkiyuzlamachilik siyosatini fosh etgan va Turkkomissiyaning yerli Turkiston kommunistlariga qarshi siyosatini tanqid qilgan. Zaki Validiy Buxoroda yashirin ish olib borish va tashkiliy faoliyat ko‘rsatish uchun to‘la sharoit yaratildi. U mahalliy jadidlarning Turk milliy birligi g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, uni tashkilot darajasiga keltirishda katta hissa qo‘shgan. Munavvarqori Abdurashidxonov ham “Risqulov guruhi”da va “milliy og‘machilik”da ayblanib, Buxoroga surgun qilingan edi. U Buxoro sovet hukumatining Xalq maorifi komissarligi kollegiyasi a’zosi bo‘lib ishlagan.

“Turkiston Milliy Birligi” tashkiloti 1921-yil boshlaridan boshlab, Butun Turkiston bo‘ylab milliy istiqlol harakati rahbarlari huzuriga maxsus choparlar yuborgan. Buxoroga ko‘plab joylardan Turkiston milliy birligi g‘oyasiga sodiq kishilar kelgan. Ular orasida turkman Qaqajon Berdiyev, qozoqlarning Alash O‘rda vakillari Xayritdin Bolg‘inboyev va Muxtor Avezovlar bor edi. Jadidlar, “Erk” firqasi va Alash O‘rda firqasi birlashib, “Turkiston Milliy Birligi”ni tashkil etishga qaror qilganlar. A.Z.Validiy tomonidan ishlab chiqilgan “Umum platformasi” milliy mustaqillikka erishish, demokratik jumhuriyatni tashkil etish, milliy armiyani tuzish kabi maqsadlarni o‘z ichiga olgan. 1921 yilning avgustida “Turkiston Milliy Birligi”ning ta’sis kongressida umum qo‘mita O‘rta Osiyo

milliy musulmon jamiyatlari Federatsiyasi deb qayta nomlangan va A.Z.Validiy uning raisi etib saylangan. Keyinchalik, Samarqandda o‘tkazilgan kongressda “Turkiston Milliy Birligi”ning 24 banddan iborat Nizomi va Turkiston milliy bayrog‘i qabul qilingan. Ushbu bayroq millatning ozodlik ramzi sifatida qabul qilingan. “Turkiston Milliy Birligi” qisqa muddat ichida milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash tarixida katta iz qoldirdi. U umum Turkiy olam birligi va Turkiston milliy birligi g‘oyasini mustahkamlashga, shuningdek, mustaqillikka umum milliy birlik asosida erishish mumkinligi tushunchasini keng omma ongiga singdirishga katta hissa qo‘shdi. Tashkilot rahbarlari va qo‘rboshilar bilan yaqindan aloqada bo‘lib, ularning huzurlariga o‘z vakillarini yuborib, siyosiy rahbarlik qilgan.



Turkiston muhojirlari turli davlatlarda istiqomat qilar ekan, albatta ularni birlashtirish va mavjud muammolarini hal qilish maqsadida turli maqsadlarni o‘z ichiga olgan tashkilotlar tuzilgan. Shunday tashkilotlardan biri Oydin uyushmasi bo‘lib, Mazkur uyushma Afg‘onistondagi turkiy tilli yoshlar uchun muhim madaniy-ma’rifiy tashkilot hisoblanadi. Markazi Kobulda joylashgan bu uyushma o‘n yillar davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi turkiy tilli yoshlar orasida madaniy va ma’rifiy faoliyatni targ‘ib qilish hamda yoshlarning ta’lim olishiga imkon yaratishdir. Uyushma asosan Turkiya Respublikasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, shuningdek, yoshlar tashabbusini qo‘llab-quvvatlovchi ayrim homiylar ham ko‘mak beradi. Turkiya Respublikasi ushbu uyushma orqali turkiy tilli yoshlarni Turkiya Davlat Dasturlarida ma’rifiy masalalarda ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga, tadbirkor va sarmoyadorlar ham uyushma faoliyatini ta’minlashga hissa qo‘shadilar. Uyushmaning bo‘limlari Afg‘onistonning shimoliy viloyatlarida, jumladan, Taxor, Mozori Sharif, Saripul, Andxuy va Maymana kabi joylarda mavjud. Uyushma yoshlar shaxsini shakllantirishga katta e’tibor qaratadi. Yoshlarni ma’rifiy masalalar bilan bir qatorda sportga, jumladan, futbol, voleybol, uloq (ko‘pkari) va kurashlarga jalb qilish ishlarini tashkil etadi. Urushda aziyat chekkan va nogiron yoshlarga moddiy-ma’naviy yordam ko‘rsatadi.

Uyushma tarkibiga qizlar ham jalb etilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishni maqsad qilib qo‘ygan. Uyushmaning shiori: “O‘lkadoshlar bir bo‘linglar, yaxshi

bunyod aylaylik, Urushda o‘lgan kishilar ruhini shod aylaylik. Kim, bugun o‘lka tushubdir, boshqa asrning ichiga, Barcha naslim birlashing, o‘lkamni ozod aylaylik.” Uyushmaning tashkiliy tizimi quyidagilardan iborat: rahbar, rahbar o‘rinbosari va bo‘limlar (baxshlar), jumladan, tashkiliy bo‘lim, madaniy bo‘lim va matbuot bo‘limi. Har oyda “Oydin” jurnali nashr etiladi, uning tiraji ikki ming dona bo‘lib, forsiy va o‘zbek tilida chop etiladi. Jurnal asosan yoshlar muammolariga bag‘ishlangan. Uyushma yoshlarning ta’lim olishi va ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning kelajagini yoritishga intiladi. Bu orqali yoshlar o‘zlarining madaniy va ma’rifiy meroslarini saqlab qolishlari va rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari Afg‘oniston matbuoti sohasida ham O‘zbeklar alohida o‘rin tutadi. Xususan, Afg‘oniston matbuoti tarixida o‘zbek tilida nashr etilgan birinchi rasmiy gazeta “Yulduz” bo‘lib, uning asoschisi sobiq adliya vaziri va bosh prokuror professor Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy edi. 1978-yildan boshlab gazetaning to‘rt sahifasi o‘zbek, to‘rt sahifasi esa turkman tilida chop etila boshlandi. Dastlab, Kobulda nashr etilgan gazeta, shimolga yetkazib berishning murakkabligi sababli, Mozori Sharifga ko‘chirilgan va turkman tilidagi sahifalari alohida “Gurash” nomi bilan nashr etila boshlandi. “Yulduz” gazetasining bugungi kundagi nashri to‘rt bet o‘zbek, to‘rt bet dariy va pushtun tillarida chop etilmoqda. Gazeta davlatga qarashli bo‘lib, Chegara va qavmlar vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi va har oyda uch yuz nusxada chiqadi. “Oydin-Afg‘oniston” gazetasi Kobulda o‘zbek tilida nashr etilib, ming nusxada chop etiladi. “Ezgu tuyg‘u” gazetasi 2000 yildan boshlab Shibirg‘on shahrida Bobur jamg‘armasi tomonidan nashr etilib, sakkiz sahifadan iborat bo‘lib, to‘liq o‘zbek tilida chop etiladi va ming nusxada tarqatiladi.

“Gunash” jurnali turkman tilida har oyda ikki ming nusxada nashr etiladi. Kobul shahrida Afg‘oniston milliy-islomiy harakatining “Oina” telestudiyasi faoliyat olib borib, ko‘rsatuvlarning o‘ttiz foizi o‘zbek tilida olib boriladi. Bundan tashqari, Kobul, Mozori Sharif, Shibirg‘on va Tohor shaharlarida nashriyotlar faoliyat olib borib, ayrim kitoblarni o‘zbek tilida chop etmoqda. Ushbu matbuot va nashriyotlar Afg‘onistonda o‘zbek tilining rivojlanishi va saqlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu nashrlar nafaqat o‘zbek tilida axborot tarqatish, balki milliy madaniyat va ma’naviyatni targ‘ib qilishda ham katta

ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi matbuotning mavjudligi, ayniqsa, Afg‘oniston kabi ko‘p millatli mamlakatda, turli etnik guruhlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu nashrlar orqali o‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholi o‘z madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi nashrlar Afg‘onistonda ta’lim va ilm-fan rivojiga ham hissa qo‘shadi. O‘zbek tilida chop etilayotgan kitoblar va ilmiy maqolalar yosh avlodning bilim olishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [6]. Yuqoridagi boblarda ta’kidlab o‘tilganidek, Turkiston muxojirlari uchun tili va madaniyati birmuncha yaqin bo‘lgan Turkiya davlatida ham turkiy tilli muxojirlar uchun jamiyat va tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 1950-yillarda tashkil etilgan Adanadagi Turkistonliklar Madaniyat va Yordam Jamiyati, ko‘pchiligi o‘zbek bo‘lgan, Adanadagi qozoq, uyg‘ur, tojik etnik guruhlariga mansub Turkistonlik muhojirlarni o‘z ichiga oladi. Har yili turli kunlarda yig‘ilib, qo‘rboshi yod etish uchrashuvi, Navro‘z bayrami, an’anaviy Palov Shodiyonalari, Gap-Gashtaklar kabi tadbirlar o‘tkazadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳайитов Ш.А. Туркияга ўзбеклар кўчиб боришининг тарихий босқичлари // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 36–38.

2. Abdulhamid Ko‘char. Qullikdan hurlikka. – T.; Muharrir nashriyoti. 2019. – B.69.

3. Hayitov Sh. Badriddinov S. Vatan deya vatansiz qolganlar qismati. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti; 2005. – B.38-39.

4. Abdurahimov O‘; Abdulla Olim (Toshqin) Firoq vodiysida (Tarixiy roman) Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. – T.: 2007. – B. 176-177.

5. Gömeç, S. (2018). Tari hi Türk Coğrafyasının genel hatları. Türk Dünyası Araştırmaları, 120(237), 103-114.

6. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro Turkiston beshigi (fors tilidan H.To‘rayev tarjimasi). Buxoro-2004-yil. – B.122-123.